



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 2

2026

SHARQ VA G'ARB ADABIYOTIDA INTERTESTUALLIKNING BADIY TALQINI

Mannonova Feruzabonu Sherali qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, katta o'qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqola Uilyam Bleyk va Mahmud Shabistariy she'riyatida intertekstuallikning badiiy talqini masalasini o'rganadi. Tadqiqotda intertekstuallik nazariy asoslari yoritilib, Mahmud Shabistariyning "Gulshani Roz" va Uilyam Bleykning "Songs of Innocence and Experience" to'plamidagi bibliyaviy, mifologik va adabiy alluziyalar tahlil qilinadi. Maqolada intertekstuallikning badiiy-falsafiy funksiyasi, obrazlar yaratish va g'oyaviy mazmunni boyitishdagi roli o'rganiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Bleykning ijodida intertekstual unsurlar matnning estetik qatlamini kuchaytiradi va Mahmud Shabistariyda esa o'quvchiga falsafiy, axloqiy mazmunni chuqurroq qabul qilish imkonini beradi. Shu orqali maqola sharq va g'arb adabiyotshunosligi va she'riyat tahlilida intertekstuallik tadqiqotlariga hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: intertekstuallik, Uilyam Bleyk, Bibliya, Quron, alluziya, ramz, mistika, tasavvuf.

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНОСТИ В ВОСТОЧНОЙ И ЗАПАДНОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Маннонова Ферузабону Шерали кизи

Узбекский государственный университет мировых языков, старший преподаватель

Аннотация

В данной статье рассматривается проблема художественной интерпретации интертекстуальности в поэзии Уильяма Блейка и Махмуда Шабистари. В исследовании освещаются теоретические основы интертекстуальности, а также анализируются библейские, мифологические и литературные аллюзии в произведении Махмуда Шабистари «Гульшани Раз» и в сборнике Уильяма Блейка «Песни Невинности и Опыта». В статье изучается художественно-философская функция интертекстуальности, ее роль в создании образов и обогащении идейного содержания произведений. Результаты исследования показывают, что в творчестве Блейка интертекстуальные элементы усиливают эстетический уровень текста, тогда как у Махмуда Шабистари они способствуют более глубокому восприятию философского и нравственного смысла произведения. Тем самым статья вносит вклад в исследования интертекстуальности в восточном и западном литературоведении и анализе поэтических текстов.

Ключевые слова: интертекстуальность, Уильям Блейк, Библия, Коран, аллюзия, символ, мистицизм, суфизм.

THE ARTISTIC INTERPRETATION OF INTERTEXTUALITY IN EASTERN AND WESTERN LITERATURE

Mannonova Feruzabonu Sherali qizi

Uzbekistan State World Languages University, Senior Lecturer

Abstract

This article examines the artistic interpretation of intertextuality in the poetry of William Blake and Mahmud Shabistari. The study outlines the theoretical foundations of intertextuality and analyzes biblical, mythological, and literary allusions in Mahmud Shabistari's "Gulshani Raz" and William Blake's "Songs of Innocence and Experience." The article explores the artistic and philosophical functions of intertextuality, as well as its role in the creation of imagery and the enrichment of ideological content. The findings of the study demonstrate that intertextual elements in Blake's works enhance the aesthetic layer of the text, while in Shabistari's poetry they enable the reader to perceive philosophical and ethical meanings more deeply. Thus, the article contributes to intertextual studies in Eastern and Western literary criticism and poetic analysis.

Keywords: intertextuality, William Blake, the Bible, the Kuran, allusion, symbol, mysticism, Sufism.

Intertekstuallik adabiyotshunoslikda badiiy matnlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ifodalovchi muhim nazariy tushunchalardan biridir. Ushbu atama XX asrning ikkinchi yarmida fransuz olimasi Yuliya Kristeva tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, u matnni mustaqil va yopiq tuzilma sifatida emas, balki avvalgi va zamondosh matnlar bilan uzviy bog'langan ochiq tizim sifatida talqin etadi. Kristeva fikricha, "har bir matn iqtiboslar mozaikasidir", ya'ni u boshqa matnlar ta'siri va aks-sadosi asosida shakllanadi. [3]

Intertekstuallik nazariyasining shakllanishida rus formalizmi va M. Baxtinning dialogiklik konsepsiyasi muhim o'rin tutadi. Baxtin badiiy matnni turli ovozlari, qarashlari va diskurslari o'zaro muloqotga kirishadigan maydon sifatida talqin qilib, har qanday matn avvalgi nutqlar bilan dialogik munosabatda bo'lishini ta'kidlaydi. Aynan shu g'oya Kristeva tomonidan rivojlantirilib, intertekstuallik nazariyasining metodologik asosiga aylantirilgan. [6]

Zamonaviy adabiyotshunoslikda intertekstuallik alluziya, sitata (iqtibos), reministsensiya, talmeh, parodiya, stilizatsiya kabi badiiy vositalar orqali namoyon bo'ladi. Ushbu unsurlar muallifning madaniy xotirasi, estetik qarashlari va ijodiy vorisiyligini aks ettiradi. Intertekstual bog'lanishlar matnning semantik qatlamlarini kengaytirib, o'quvchini faol talqin jarayoniga jalb etadi.

Intertekstuallikning asosiy funksiyalaridan biri — ma'no yaratish va boyitishdir. Boshqa matnlarga ishora qilish orqali badiiy asarda yashirin ma'nolar, ramziy qatlamlar va falsafiy umumlashmalar yuzaga keladi. Ayniqsa, diniy va mifologik manbalarga tayangan intertekstual aloqalar matnning g'oyaviy-axloqiy yo'nalishini chuqurlashtiradi.[2] Sharq adabiyotida intertekstuallik ko'pincha Qur'on oyatlari, hadislar va tasavvufiy ramzlar orqali ifodalansa, G'arb adabiyotida Bibliya, antik mifologiya va klassik adabiy an'analar bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Shuningdek, intertekstuallik vorisiylik va novatorlik munosabatlarini aniqlashda muhim nazariy mezon hisoblanadi. Muallif boshqa matnlardan foydalanar ekan, ularni bevosita takrorlamaydi, balki yangi badiiy kontekstda qayta talqin qiladi. Bu jarayon adabiy an'ananing davomiyligini ta'minlash bilan birga, ijodkorning individual uslubini ham ochib beradi.

Ingliz adabiyotida intertekstuallik ko'pincha bibliyaviy, mifologik va adabiy alluziyalar orqali ifodalanadi, bu esa o'quvchiga matnning falsafiy va estetik qatlamlarini chuqurroq talqin qilish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, intertekstuallik badiiy ijodda yozuvchining avvalgi adabiy tajribasi va madaniy kontekst bilan bog'lanishini ta'minlaydi, matnga yangi ma'no va obrazlarni shakllantirish imkoniyatini beradi.

Uilyam Bleykning "Songs of Innocence and Experience" to'plami intertekstuallikning badiiy talqinini o'rganish uchun eng qulay materiallardan biridir. Unda bibliyaviy hikoyalar, mifologik ramzlar va adabiy alluziyalar keng qo'llanilgan bo'lib, ular orqali shoir o'z g'oyaviy

va axloqiy xabarini o'quvchiga yetkazadi. Shu nuqtai nazardan, intertekstuallik Bleyk ijodida nafaqat matnning estetik qatlamini boyitadi, balki uning falsafiy mazmunini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Ushbu maqola Bleykning she'riyatida intertekstuallikning obraz yaratish va g'oyani yetkazishdagi badiiy funksiyalarini tahlil qilishga qaratilgan.

Metodologiya. Adabiyotshunos olim G.Xalliyeva fikricha, "... intertekst(tuallik) – matnlarning o'zaro aloqaga kirishuvi, adabiy matnlarning o'zaro aloqasidan iborat".[15] "Gulshani Roz" va "Ma'sumlik va tajriba qo'shiqlari" asarlardagi obrazlar genezezi Qur'on va Injil manbalariga chambarchas bog'langan va ularga asarda takroran murojaat etish orqali asar g'oyaviyligi va ma'naviy- axloqiy tamoyillarini ochib berishda xizmat qiladi.

*That road is long, and hard, leave it,
Like Moses for a season cast away that staff.*

*Bu yo'l g'oyat uzun, o'zdin judo qil,
Musodek bir nafas tarki aso qil.*

Har ikki misrada ham intertekstlik namoyon boladi. Tasavvufning mashaqqatli suluk yo'li Qur'ondagi "Biz odamlarni sinovdan o'tkazamiz" oyati bilan bog'laydi. [9] Bu bayt orqali Shabistariy payg'ambarona qissani so'fiylik yo'li bilan bog'laydi. Qur'onda u o'zining asosini Alloh amri bilan tashlab yuboradi va u ilonga aylanadi. [9] Suluk, Muso va aso obrazlar sifatida bu voqea dunyoviy tushunchalardan voz kechib, Haq mo'jizasiga suyanish ramziga aylanadi.

Shuningdek, olim A. Ahmedova "Obraz yaratish mahorati intertekstual aloqalar kesimida" nomli maqolasida ham shunday mulohazalar keltiradi: "... intertekstual aloqalar tahlili ijodkorning badiiy mahoratini vorisiylik va novatorlik kontekstida o'rganishga hamda asardagi originallikni, muallif g'oyasining mantiqiyligi va ijodiy fantaziyasining kengligi kabi badiiylik mezonlarini xolis baholashga imkoniyat beradi." [1] Shabistariyning hadislariga murojaati ham asarning original mazmuni va mantig'ini yanada oshirgan.

*To think the mercies is the condition of your path,
But to think on the essence of "The Truth" is grievous sin.
Sifoti Haqni o'ylash sharti rohdir,
Fikrda zoti haq ersa gunohdir.*

Shoir ushbu misralarda "Allohnin ne'matlari haqida taffakkur qiling, ammo uning zoti haqida emas" degan hadisni ijodkorona mahorat bilan she'riy baytlariga kO'chirar ekan, bu intertekstuallik orqali shoir tasavvuf yo'lidagi inson tafakkuri chegarasini belgilaydi. Shabistariy hadisni badiiy shaklga solib, rahmat- suluk yo'lining belgisi, Haq esa inson aqliga sig'maydigan ilohiy quyosh sifatida obrazlashtiriladi.

Bu kabi namunalarni Uilyam Bleyk ijodida ham uchratish mumkin. Ularda asosan Injil oyatlariga va Miltonistik nazariyalarga bog'liqlik namoyon bo'ladi.

<i>Youth of delight, come hither</i>	<i>Shodonlik yoshlari kelib yaqinroq,</i>
<i>And see the opening morn,</i>	<i>Yangi tong otishin ila shu onda</i>
<i>Image of truth new born.</i>	<i>Haqiqatning yangi suratin ko'ring.</i>

"Opening morn, image of truth new- born" – bu Injildagi "Qayta tug'ilmas ekan, hech kim Xudoning shohligini ko'ra olmaydi" oyatiga bog'lanadi. [8] Bu she'rda Bleyk yoshlarni haqiqatga chaqiruvchi ruhiy yo'lboshchi va qutqaruv yo'li kabi poetik obrazlarni gavdalantirib, najot va qayta tug'ilish intertekstini romantik davr falsafasi bilan uyg'unlashtiradi.

<i>And the gates of this chapel were</i>	<i>Taqiq deya ilingan devorlariga</i>
<i>shut,</i>	<i>Ibodatxona darvozalari</i>
<i>And "Thou shalt not" writ over the</i>	<i>zinjlangan edi,</i>

*door;
So I turn'd to the garden of Love
That so many sweet flowers bore*

*Shunda yuzlandim men sevgi
bog'iga,
Bunda shirin chechaklar
gullagan edi.*

Shoirning “Garden of Love” she’rida Adan bog’i obrazini cherkov ta’siri ostida talqin qiladi. Bu bevosita “Paradise Lost” (“Yo’qotilgan jannat”) dagi Adan bog’i tasvirlari bilan intertekstual bog’langan. Milton Adanni qulash bilan tasvirlasa, Bleyk cherkovning taqiqlari orqali yo’qotilgan erkinlikni ifodalab beradi. [5]

Demak, intertekstuallik adabiyotshunoslikda juda keng ma’nolarda ishlatiladi va uning yordamida o’z o’zidan turli mavzu va masalalar yuzaga kelishi mumkin. Asosiy masala, intertekstual aloqalarni aniqlash keng bilim doirasini, nozik kuzatuvchanlikni hamda matnlar ustida ishlashda boy tajribani talab etadi. “Badiiy matnning chuqur mazmunini anglash uchun muallim va talaba matnga kamida tarixchi va faylasuf nigohi bilan boqishi lozim”. [11] Boshqa bir jihatdan qaralganda, agar intertekstual bog’lanishlar aniq va maqsadli yo’naltirilmagan bo’lsa, asarda ifodalanayotgan ma’nolar kontekstdan chetlashib, noto’g’ri yoki haddan tashqari keng talqin qilinish xavfi yuzaga keladi. Bu esa asardagi obrazlarning izchil va chuqur ifodalanishiga ta’sir qiladi.

Mahmud Shabistarining “Gulshani Roz” asari tasavvuf falsafasi va Qur’on, Hadis hamda mashhur tasavvufiy adabiyot manbalariga ishoralar va eslatishlarga asoslangan bo’lib, bu asar mazmuni yanada boyitadi. Masalan, Yunus, Muso, Ibrohim va boshqa payg’ambarlarning hayotiga tasavvufiy mazmundagi asarlarda eslatib o’tiladi. Masalan, Muso va tog’ motifi (Muso payg’ambarning Tur tog’ida Alloh bilan muloqot qilishi) ilohiy bilish jarayoni sifatida talqin qilinadi.

*The light of the prophet is a mighty sun,
Now shining in Moses, now in Adam.
If you read the chronicles of the world,
You will know clearly its several degrees*

*Payg’ambar nuri ulug’ bir quyoshdir,
Endi Musoda porlaydi, endi Odamda.
Agar dunyo tarixini o’qisang,
Uning turli darajalarini aniq bilasan.*

“Now shining in Moses, now in Adam” (Endi Musoda porlaydi, hozir Odamda edi) ushbu satrda Muso (alayhissalom) va Odam (alayhissalom) ismiga ishora qilingan. Bu ilohiy vahiy va payg’ambarlik merosi haqida diniy ishora bo’lib, Qur’on va Tavrot hikoyatlariga asoslanadi. Bunda payg’ambarlar orqali ilohiy nurning turli davrlarda namoyon bo’lishi g’oyasini aks ettiriladi. Agar inson dunyo tarixini chuqur o’rganib chiqsa, payg’ambarlarning o’zaro bog’langanligini va ilohiy nurning turli davrlarda turli shakllarda namoyon bo’lganini tushunishi mumkin. Bu tarixiy manbalar, muqaddas kitoblar yoki diniy matnlarni o’rganishga chaqiriq sifatida tushuniladi.

“Gulshani Roz”dagi kabi “Ma’sumlik va Tajriba qo’shiqlari” (“Songs of Innocence and Experience”) asarlarida ham talmeh juda muhim adabiy usul bo’lib, har ikkala asarda ham diniy, falsafiy va adabiy manbalarga ishoralar mavjud.

Tadqiqotchi D. Sulaymanovanning fikriga ko’ra: “Tabiiy manzaralar mavzusi ko’plab shoirlarning asarlarida markaziy o’rin tutadi. Unga berilgan go’zal ishoralar har bir shoirning o’ziga xosligi va yangiligining belgisidir. Bunday mavzu Bleykning ijodida alohida ahamiyat kasb etadi.” [13] Quyida ularning ba’zi misollarini ko’rib chiqamiz.

Uilyam Bleykning asari Injil, xristian teologiyasiga va hatto siyosiy-falsafiy

tushunchalarga boy. Bu jihatdan Bleyk poeziyasi Mahmud Shabistariy ijodining diniy xususiyatlariga yaqinligi bilan ahamiyatlidir. Injildagi ishoralar “Lamb” (“Qo‘zichoq”) she’rida ham ko‘rinadi. “The Lamb” she’rida Iso Masihga ishora bor: “He calls Himself a Lamb” (U o‘zini qo‘zi deya atardi). Injilda Iso ko‘pincha “Xudoning Qo‘zisi” sifatida tilga olinadi. [14] Bu she’r begunohlik va poklik ramzi sifatida yozilgan.

Uilyam Bleyk asarlarida Jon Miltonning “Yo‘qotilgan jannat” (“Paradise Lost”) asariga nisbatan ishoralar ko‘plab uchraydi. She’rlardagi zulmat va yorug‘lik, begunohlik va tajriba mavzulari Miltonning jannatdan quvilgan insoniyat haqidagi falsafiy qarashlari bilan bog‘liq. [7] Boshqa so‘z bilan aytganda, “Insonning qulashi” (“Fall of the Man”) “Experience” (“Tajriba”) siklidagi she’rlar insonning begunohlikdan tajribaga o‘tishi Bibliyadagi Odam Ato va Momo Havoning jannatdan quvilishiga ishora beradi.

Xulosa qilib aytganda, intertekstuallik Sharq va G‘arb adabiyotida badiiy tafakkurning muhim unsurlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Uilyam Bleyk va Mahmud Shabistariy ijodi misolida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, intertekstual aloqalar nafaqat matnlararo bog‘lanishni ta‘minlaydi, balki asarning g‘oyaviy, falsafiy va estetik qatlamlarini chuqurlashtiradi. Har ikki ijodkor diniy, mifologik va adabiy manbalarga murojaat qilish orqali o‘z davrining ijtimoiy-ma‘naviy muammolarini badiiy obrazlar vositasida yoritgan. Mahmud Shabistariyning “Gulshani Roz” asarida Qur‘on oyatlari, hadislar va payg‘ambarlar qissalari tasavvufiy ramzlar bilan uyg‘unlashib, insonning Haqqa yetishish yo‘lidagi ruhiy kamolotini ifodalaydi. Uilyam Bleyk esa “Songs of Innocence and Experience” to‘plamida Injil motivlari, Miltonistik an‘analar va romantik falsafa orqali inson ruhiyatidagi begunohlik va tajriba qarama-qarshiligini ochib beradi. Bu jihatdan, har ikki ijodkor intertekstuallikdan badiiy vosita sifatida foydalanib, o‘quvchini chuqur mushohada va talqinga chorlaydi. Tahlil natijalari shuni tasdiqlaydiki, intertekstuallik badiiy asarda obraz yaratish, ramziy ma‘nolarni kuchaytirish va muallif g‘oyasini mukammal ifodalashda muhim rol o‘ynaydi. Shu bois, intertekstuallikni o‘rganish Sharq va G‘arb adabiyotini qiyosiy tahlil qilishda, adabiy vorisiylik va novatorlik masalalarini yoritishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ahmedova A. Obraz yaratish mahorati intertekstual aloqalar kesimida. O‘zbek tili va adabiyoti, 2020, №3.
2. Allen G. Intertextuality. London–New York, Routledge, 2011.
3. Bakhtin M. The Dialogic Imagination: Four Essays. Austin, University of Texas Press, 1981.
4. Blake W. Songs of Innocence and of Experience. London, Penguin Classics, 2008.
5. Bloom. H. English Romantic Period.- Chelsea House, 2004.
6. Kristeva J. Word, Dialogue and Novel. In: The Kristeva Reader. Oxford, Blackwell, 1986.
7. Mannonova F. Mahmud Shabistariy va Uilyam Bleyk ijodida badiiy mahorat. O‘zbek filologiyasida matnshunoslik va manbashunoslik muammolari mavzusidagi II xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. NamDU. 2025.
8. Milton J. Paradise Lost. London, Penguin Classics, 2003.
9. Muqaddas kitob. – Toshkent, 2020. – B.1932. Yuhanno.129.
10. Qur‘on Karim. Arabcha matn va o‘zbekcha tarjima. Toshkent, Movarounnahr, 2019.
9. Schales R. Semiotics and Interpretation. – London: Yale University, 1982.
10. Shabistari M. Gulshani Raz. Tehran, Amir Kabir Publications, 2005.
11. Sulaymanova D. Uilyam Bleyk poeziyasida tabiat obrazlari. Xorijiy filologiya, 2019, №2.
12. The Holy Bible. King James Version. New York, Oxford University Press, 2004.
13. Xalliyeva G. Intertekstuallik va badiiy matn tahlili. Toshkent, Fan, 2018.